
IZLAGAN IMKON TOPAR: “O‘Z YURTIMIZDA HAM MEHNAT QILIB, O‘SHA PULNI TOPSA BO‘LAR EKAN” DEYDI MIGRATSIYADAN QAYTGAN XOMIDJON NO‘MONOV



Qo‘sh tepa tumanidagi Solijonobod mahalla fuqarolar yig‘ining o‘shish nuqtasi drayveridan biri xizmat ko‘rsatish sohasini tashkil etadi. Shu sababdan mahallada bu sohaga qiziqish bildirayotgan ko‘plab yoshlarni uchratish mumkin.

Shunday tashabbuskor yoshlardan biri Xomidjon No‘monov joriy yilning fevral oyiga qadar bir necha yillar xorijda migrant sifatida ishlab kelgan. Mamlakatimizga qaytgach, mahalla hokim yordamchisi Sherzodbek Raxmonov bilan maslahatlashib, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish istagi borligini aytdi. Shundan so‘ng unga hududdagi bo‘sh turgan maydon tavsiya etildi. “Har bir oila – tadbirkor” dasturi asosida Xalq banki Qo‘sh tepa filiali tomonidan uskuna uchun imtiyozli kredit ajratilib, o‘z faoliyatini boshladi.



– O‘zga yurtlarda musofirchilikda qiynalib yurardim, mana davlatimiz rahbariga katta rahmat, shunchalik sharoit yaratib berdilar. O‘z yurtimizda ham mehnat qilib, o‘sha pulni topsa bo‘lar ekan, – deydi Xomidjon No‘monov.

Yosh tadbirkor bugungi kunda yog‘och maxsulotlariga ishlov beruvchi lentali arrada xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etdi va uning mijozlari kundan kun ko‘payib, daromadi ham ortib bormoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-05 08:25:26